

ISLOMIY INVESTITSION MAHSULOTLAR VA ULARNING O'ZBEKISTONDA JORIY ETISH ISTIQBOLLARI.

*Bank-moliya akademiyasi tinglovchisi
Akbarova Moxlaroyim Ulug'bek qizi
akbarovamohlaroyim98@mail.com / +998 99 153 04 01*

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi uchun turli moliyaviy vositalar, jumladan, islomiy investitsiya mahsulotlari tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. So'nggi yillarda global miqyosda islomiy moliya bozori tez sur'atlar bilan rivojlanib, 2023-yilda uning hajmi 3,5 trillion AQSh dollaridan oshdi (AAOIFI, 2023). Islomiy moliyaning asosiy tamoyillari – ribo (foiz)dan voz kechish, tavakkal vaadolat prinsiplari asosida iqtisodiy muvozanatni ta'minlash, ijtimoiyadolatni oshirish va tadbirkorlikni rag'batlantirishdan iboratdir (Iqbal & Mirakhор, 2013).

Shunga ko'ra, O'zbekistonda islomiy investitsiya mahsulotlarining rivojlanish imkoniyatlarini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillarda hukumat moliyaviy bozorni diversifikatsiya qilishga intilmoqda, biroq islomiy investitsiyalar hali to'liq joriy etilmagan. Mamlakatdagi musulmon aholining aksariyati moliyaviy operatsiyalarda shariat qoidalariiga mos keladigan vositalardan foydalanishni xohlashini ta'kidlaydi, ammo mavjud moliyaviy tizim bunga mos emas (Asadov et al., 2021). Ushbu tadqiqot islomiy investitsiya mahsulotlarining mohiyati, global tajriba va O'zbekistonda joriy etish istiqbollarini o'rganishga bag'ishlangan.

Islomiy investitsiyalar an'anaviy moliyaviy mahsulotlardan farqli ravishda foizga asoslanmaydi va real aktivlar bilan bog'liq bo'lgan vositalar orqali daromad olishni nazarda tutadi. Eng keng tarqalgan islomiy investitsiya mahsulotlariga quyidagilar kiradi:

Mudoraba – bir tomon (moliya beruvchi) kapital kiritadi, ikkinchi tomon esa (tadbirkor) biznesni boshqaradi va foya oldindan kelishilgan ulush asosida taqsimlanadi (Iqbal, 2019).

Mushoraka – barcha tomonlar kapital va mehnat kiritadi, foyda va zarar shartnomaga asosida taqsimlanadi (Saeed, 2020).

Ijara – aktivning ijara berilishi orqali daromad olish, bunda aktiv egasi va foydalanuvchi o‘rtasida shariatga mos keladigan shartnomaga tuziladi (AAOIFI, 2023).

Sukuk (Islomiy obligatsiyalar) – real aktivlar bilan ta’minlangan qimmatli qog‘ozlar bo‘lib, investorlarga aniq loyiham orqali daromad olish imkonini beradi (El-Hawary et al., 2007).

Dunyo miqyosida Malayziya, Indoneziya, Saudiya Arabiston va Birlashgan Arab Amirliklari kabi mamlakatlar islomiy investitsiya mahsulotlarini muvaffaqiyatli joriy etib kelmoqda. Xususan, Malayziya davlati global islomiy moliyaviy bozorning 30 foizini egallab, dunyoning eng yirik sukuk chiqaruvchisi hisoblanadi (Bank Negara Malaysia, 2022). Ularning tajribasi shuni ko‘rsatadiki, quyidagi omillar islomiy investitsiyalarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega:

Huquqiy asosning mavjudligi – Islomiy moliya bo‘yicha maxsus qonunlar va tartib-qoidalar ishlab chiqilgan.

Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash – Hukumat tomonidan islomiy banklar va investitsiya institutlarini rag‘batlantirish choralar ko‘rilgan.

Soliq va preferensiyalar – Islomiy moliya institutlariga an’anaviy banklarga teng sharoit yaratib berilgan.

Bugungi kunda mamlakatimizda islomiy investitsiya mahsulotlarini rivojlantirish yuzasidan quyidagi muammolar mavjud:

Huquqiy cheklovlar – Joriy qonunchilik tomonidan foizsiz moliyalashtirish mexanizmlarini to‘liq tan olinmagan.

Moliyaviy savodxonlikning yetishmasligi – Jamiyatning katta qismi islomiy moliyaning mohiyatini to‘liq tushunmaydi.

Tijorat banklarining tayyor emasligi – Bank tizimi islomiy moliyaviy mahsulotlarni joriy etish uchun moslashmagan.

Soliq siyosatining noaniqligi – Islomiy investitsiya mahsulotlarining soliqqa tortilishi aniq belgilanmagan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, O‘zbekistonda islomiy investitsiya mahsulotlarini muvaffaqiyatli joriy etish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

Huquqiy asosni mustahkamlash – Islomiy moliyaviy institutlar faoliyatini tartibga soluvchi maxsus qonunlarni qabul qilish (Asadov et al., 2021).

Soliq imtiyozlarini yaratish – Islomiy moliyaviy mahsulotlar an’anaviy bank mahsulotlariga nisbatan soliq jihatdan tenglashtirilishi kerak.

Markaziy bank nazorati – Islomiy moliya institutlarini nazorat qilish va shaffofligini ta’minlash uchun maxsus bo‘lim tashkil etish.

Islomiy investitsiya fondlarini yaratish – O‘zbekistonning infratuzilma loyihibalarini moliyalashtirish uchun sukuk va mushoraka kabi mahsulotlardan foydalanish.

O‘zbekiston iqtisodiyotining jadal rivojlanishi mamlakat moliyaviy tizimini diversifikatsiya qilish zaruratinu tug‘diradi. Shu nuqtai nazardan, islomiy investitsiya mahsulotlarining joriy etilishi iqtisodiyotga quyidagi jihatlar bo‘yicha sezilarli ijobjiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin:

Moliyaviy inklyuzivlikni oshirish – Islomiy moliya foizsiz moliyalashtirish tamoyiliga asoslanganligi sababli, odatda an’anaviy bank tizimidan foydalanmaydigan yoki unga ishonmaydigan aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini oshiradi.

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish – Malayziya, Saudiya Arabistoni, BAA kabi davlatlar O‘zbekistonda islomiy investitsiya imkoniyatlarining mavjudligiga katta qiziqish bildirmoqda. Islomiy moliya tizimining rivojlanishi ushbu investitsiyalarning oqimini ko‘paytirishi mumkin.

Barqaror iqtisodiy o‘sish va tadbirkorlikni rivojlantirish – Mushoraka va mudoraba kabi islomiy investitsiya mahsulotlaridan foydalangan holda kichik va o‘rta biznesni moliyalashtirish orqali iqtisodiy faollikni oshirish mumkin.

Moliyaviy barqarorlikni ta'minlash – Islomiy moliya spekulyativ (g'arar) operatsiyalar va haddan tashqari qarz yukidan qochishga asoslangan bo'lib, bu esa moliyaviy inqiroz xavfini kamaytiradi.

Shunga ko'ra, islomiy investitsiya mahsulotlarini to'laqonli joriy etish uchun qator muammolar hal etilishi ko'zda tutilgan:

Huquqiy bazani mustahkamlanish – Islomiy moliyaviy institutlarning samarali ishlashi uchun maxsus qonunchilik ishlab chiqilishi zarur hisoblanadi.

Moliyaviy institutlarni rivojlantirilish – Islomiy banklar, lizing kompaniyalar, investitsiya fondlari va sug'urta (takaful) kompaniyalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Aholi va biznes vakillarining xabardorligini oshirilish – Islomiy moliyasining mohiyati, afzalliklari va imkoniyatlari bo'yicha keng targ'ibot ishlari olib borilish orqali aholining moliyaviy bilimlarini oshirish.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda islomiy investitsiya mahsulotlarini joriy etish iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Islomiy moliyaning rivojlanishi nafaqat moliyaviy tizimni diversifikatsiya qilishga, balki xalqaro investitsiyalarni jalb qilish, biznes muhitini yaxshilash va barqaror iqtisodiy rivojlanishga ham xizmat qiladi..

Foydalanimanilgan adabiyotlar

1. AAOIFI. (2023). *Islamic Finance Standards*.
2. Asadov, A., Turaboev, I., & Nor, M. Z. (2021). *Garnering potential of zakat in Uzbekistan: A tax policy proposal*.
3. Bank Negara Malaysia. (2022). *Annual Islamic Finance Report*.
4. Iqbal, Z., & Mirakhор, A. (2013). *An Introduction to Islamic Finance: Theory and Practice*.
5. Saeed, A. (2020). *Islamic Banking and Finance: History and Future Prospects*.